XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-iyun VII-9-130-1-0-K/25 Andijon viloyati

Mahallalar faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Andijon viloyatidagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, boʻlish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash hamda oʻzgartirish kiritish masalalari toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi boʻgʻin sifatida ishlashini taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 209-sonli farmoni, 2023-yil 21-dekabrdagi “Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yoʻlga qoʻyish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 402-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, boʻlish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va oʻzgartirish, ularga nom berish va ularning nomini oʻzgartirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qaroriga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi 2024-yil 20-maydagi 294-sonli qarori talablari asosida, viloyat hokimining 2024-yil 2-iyul kungi 243-1-0-1-Q/24-sonli qarori bilan Andijon viloyati hokimligi huzuridagi Mahallalarni tuzish, birlashtirish, boʻlish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va oʻzgartirish masalalari boʻyicha idoralararo doimiy komissiyasining xulosasi, Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi Andijon viloyati boshqarmasining 2025-yil 1-aprel kungi xati hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi qonunning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Andijon viloyati hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, boʻlish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va oʻzgartirish masalalari boʻyicha idoralararo doimiy komissiyaning xulosasi bilan berilgan takliflar maʼqullansin.

2. Andijon viloyati boʻyicha birlashtiriladigan mahallalarning taklifiy roʻyxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining Andijon viloyati boshqarmasi (M.Nishanov), “Mahalla yettiligi”ning viloyat boshqarma boshliqlari hamda tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

Andijon viloyatidagi ayrim mahallalar birlashtirilishining mazmun mohiyati toʻgʻrisida aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish;

birlashtirilayotgan mahallalarni nomlashda aholining fikrini inobotga olgan holda oʻrnatilgan tartib boʻyicha hujjatlarni rasmiylashtirish;

mahallalarni birlashtirish hisobiga boʻshayotgan mahalla fuqarolar yigʻini balansidagi binolaridan samarali foydalanish choralarni koʻrish;

bunda, boʻshayotgan binolarda aholi uchun guzarlar, kutubxonalar va boshqa madaniy maskanlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish;

mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamgʻarmasiga foyda keltirish maqsadida binoni hududiy tadbirkorlarga ijaraga berish va ish oʻrinlarini yaratish;

mahalliy hokimliklar bilan birgalikda fuqarolarni roʻyxatga olish bilan bogʻliq masalalarda hamkorlik qilish choralarini koʻrsin.

4. Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining Andijon viloyati boshqarmasi (M.Nishanov), viloyat Adliya boshqarmasi (O.Bozarov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov)lar, tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

Mahalla boshqarmasi, tuman (shahar) boʻlimlari qoshida viloyat Adliya va Davlat soliq boshqarmasi hamda hududiy boʻlimlaridan masʼul biriktirilgan holda mahallalarni tugatish komissiyalarini tuzish;

komissiya tomonidan belgilangan tartibda ixchamlashtirilayotgan (birlashayotgan) mahalla fuqarolar yigʻinlarining hujjatlarini rasmiylashtirish choralarini koʻrsin.

5. Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining Andijon viloyati boshqarmasi (M.Nishanov), “Oʻzarxiv” agentligining Andijon viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (S.Djabarov)lar, tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

Ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yigʻinlarining tegishli hujjatlarini Arxivga qabul qilish choralarini koʻrish;

shuningdek, ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yigʻinlarining muhr va shtamplarni ichki ishlar boʻlimlari tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirsin.

6. Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi boshligʻi (F.Berdiqulov), Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi boshligʻi (D.Akbarov)ga:

birlashtirilgan mahallalar chegaralarini aks ettirgan va tavsiflagan holda, ularni birlashtirish boʻyicha xaritalarini chizish hamda fuqarolarning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish;

ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yigʻini inshootlarni birlashtirilgan mahalla fuqarolar yigʻinlariga balansiga berish choralarini koʻrsin.

7. Oʻzbekiston mahallalari uyushmasining Andijon viloyati boshqarmasi (M.Nishanov), viloyat Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (S.Raxmanov), viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (G.Ahmedova), Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi (A.Tangirqulov), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi (A.Toʻlanov), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (S.Djabarov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi v.b (A.Rahmonberdiyev), tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

ixchamlashtirilayotgan mahalla fuqarolar yigʻinlarining hodimlariga belgilangan tartibda ogohlantirish xatlarini berish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq kompensatsiya pullarini ajratish;

ixchamlashtirilgandan soʻng mahalla hodimlarini birlashtirilgan mahallaga belgilangan tartibda tanlov asosida ishga qabul qilish va qolgan hodimlarini esa bandligini taʼminlash choralarini koʻrsin.

8. Viloyat hokimligi huzuridagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, boʻlish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va oʻzgartirish masalalari boʻyicha idoralararo doimiy komissiyasiga:

Mahallalarni tuzish, birlashtirish, boʻlish, tugatish va ularning chegaralarini belgilash hamda bir-biriga qoʻshilib ketayotgan mahallaning birini nomini saqlab qolinishi yoki yangi nom berilishida mahalla aholisining takliflari inobatga olinsin.

Mahallalarni tuzish, birlashtirish, boʻlish, tugatish va ularning chegaralarini belgilash jarayonida mahalla aholisi tomonidan kelib chiqadigan nizoli masalalarni qonunchilikda belgilangan tartibda koʻrib chiqish vazifasi yuklatilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

10. Viloyat hokimining matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi (R.Eshonov) ushbu qarorni matbuotda e’lon qilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari boʻyicha doimiy komissiya (M.Gʻaniyeva) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining
2025-yil 13-iyundagi
VII-9-130-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyatidagi ixchamlashadigan va birlashtiriladigan mahalla fuqarolar yig‘inlari to‘g‘risida

№	Tuman (shahar) nomi	Ixchamlashadigan MFY nomi	Xonadonlar (ta)	MFY hududi (ga)	Birlashtiriladigan MFY nomi	Xonadonlar (ta)	MFY hududi (ga)	Izoh; (Birlashtirilganidan so‘ng MFY ko‘rsatkichlari)
1	Andijon shahar	Namuna MFY	370	32.3	Birlik MFY	575	32.1	Namuna MFY Birlik MFYga birlashtiriladi. Birlik MFY hududi 64,3 ga. xonadonlar soni 945 ta bo‘ladi.
2	Andijon tumani	Tadbirkor MFY	265	61.1	Buyuk turon MFY	696	139.0	Tadbirkor MFY Buyuk turon MFYga birlashtiriladi. Buyuk turon MFY hududi 200,1 ga. xonadonlar soni 961 ta bo‘ladi.
3	Andijon tumani	Damariq MFY	555	91.0	Chorbog‘ MFY	386	79.5	Damariq MFY Chorbog‘ MFYga birlashtiriladi. Chorbog‘ MFY hududi 170,5 ga. xonadonlar soni 941 ta bo‘ladi.
4	Andijon tumani	Maorif MFY	320	105.8	Beshpaxlavon MFY	463	806.3	Maorif MFY Beshpaxlavon MFYga birlashtiriladi. Beshpaxlavon MFY hududi 912,1 ga. xonadonlar soni 783 ta bo‘ladi.
5	Asaka tuman	Birlik MFY	313	52.5	Shodlik MFY	400	73.6	Birlik MFY Shodlik MFYga birlashtiriladi. Shodlik MFY hududi 126,1 ga. xonadonlar soni 713 ta bo‘ladi.
6	Jalaquduq tumani	O‘roqchi tepa MFY	438	115.1	Yangichek MFY	354	114.4	O‘roqchi tepa MFY Yangichek MFYga birlashtiriladi. Yangichek MFY hududi 229,5 ga. xonadonlar soni 792 ta bo‘ladi.
7	Jalaquduq tumani	Navoiy MFY	435	85.8	Sofiqishloq MFY	405	103.3	Navoiy MFY So‘fiqishloq MFYga birlashtiriladi. So‘fiqishloq MFY hududi 189,1 ga. xonadonlar soni 840 ta bo‘ladi.
8	Jalaquduq tumani	Osuda hayot MFY	208	3207.4	Ko‘tarma MFY	570	1,403.2	Osuda hayot MFY Ko‘tarma MFYga birlashtiriladi. Ko‘tarma MFY hududi 4610,6 ga. xonadonlar soni 778 ta bo‘ladi.
9	Izboskan tumani	Alisher Navoiy MFY	362	91.9	Z.M.Bobur MFY	517	86.6	Alisher Navoiy MFY Z.M.Bobur MFYga birlashtiriladi. Z.M.Bobur MFY hududi 178,5 ga. xonadonlar soni 879 ta bo‘ladi.
10	Izboskan tumani	Boymahalla MFY	447	772.8	Iftixor MFY	581	222.2	Boymahalla MFY Iftixor MFYga birlashtiriladi. Iftixor MFY hududi 995,0 ga. xonadonlar soni 1028 ta bo‘ladi.
11	Qo‘rg‘ontepa tumani	Buyuk zamin MFY	510	73.5	Shahrixonsoy MFY	295	78.7	Buyuk zamin MFY Shahrixonsoy MFYga birlashtiriladi. Shahrixonsoy MFY hududi 152,2 ga. xonadon soni 805 ta bo‘ladi.
12	Qo‘rg‘ontepa tumani	Xon ko‘cha MFY	353	80.9	A.Jomiy MFY	452	90.9	Xon ko‘cha MFY A.Jomiy MFYga birlashtiriladi. A.Jomiy MFY hududi 171,8 ga. xonadon soni 805 ta bo‘ladi.

13	Qo‘rg‘ontepa tumani	G‘ayrat MFY	319	261.8	Iftixor MFY	486	595.5	G‘ayrat MFY Iftixor MFYga birlashtiriladi. Iftixor MFY hududi 857,3 ga. xonadon soni 805 ta bo‘ladi.
14	Qo‘rg‘ontepa tumani	Do‘stlik MFY	321	429.0	Dexqonchek MFY	465	755.6	Do‘stlik MFY Dexqonchek MFYga birlashtiriladi. Dexqonchek MFY hududi 1184,7 ga. xonadon soni 786 ta bo‘ladi.
15	Qo‘rg‘ontepa tumani	Istiqlol MFY	461	73.3	Ustoz MFY	484	123.1	Istiqlol MFY Ustoz MFYga birlashtiriladi. Ustoz MFY hududi 196,4 ga. xonadon soni 945 ta bo‘ladi.
16	Qo‘rg‘ontepa tumani	Buyuk turon MFY	435	301.8	Ko‘nchilik MFY	513	787.2	Buyuk turon MFY Ko‘nchilik MFYga birlashtiriladi. Ko‘nchilik MFY hududi 1089,0 ga. xonadon soni 948 ta bo‘ladi.
17	Qo‘rg‘ontepa tumani	Nafosat MFY	364	2149.0	Yangi bo‘ston MFY	425	2,249.7	Nafosat MFY Yangi bo‘ston MFYga birlashtiriladi. Yangi bo‘ston MFY hududi 4398,7 ga. xonadon soni 789 ta bo‘ladi.
18	Qo‘rg‘ontepa tumani	Obod turmush MFY	391	56.8	Mustaqillik MFY (4-s)	340	66.4	Obod turmush MFY Mustaqillik MFYga birlashtiriladi. Mustaqillik MFY hududi 123,2 ga. xonadon soni 731 ta bo‘ladi.
19	Qo‘rg‘ontepa tumani	Guliston MFY	574	522.8	Navro‘z MFY	373	53.2	Navro‘z MFY Guliston MFYga birlashtiriladi. Guliston MFY hududi 576,0 ga. xonadon soni 947 ta bo‘ladi.
20	Qo‘rg‘ontepa tumani	Bozorboshi MFY	342	79.2	Z.M.Bobur MFY (1-s)	572	158.5	Bozorboshi MFY Z.M.Bobur MFYga birlashtiriladi. Z.M.Bobur MFY hududi 237,7 ga. xonadon soni 914 ta bo‘ladi.
21	Qo‘rg‘ontepa tumani	Beshkaltak MFY	337	345.5	Norbota MFY	612	890.0	Beshkaltak MFY Norbota MFYga birlashtiriladi. Norbota MFY hududi 1235,5 ga. xonadon soni 949 ta bo‘ladi.
22	Qo‘rg‘ontepa tumani	Sutkon MFY	318	512.8	Oltinsoy MFY	347	1,420.4	Sutkon MFY Oltinsoy MFYga birlashtiriladi. Oltinsoy MFY hududi 1933,2 ga. xonadon soni 665 ta bo‘ladi.
23	Qo‘rg‘ontepa tumani	Jannatbuloq MFY	575	585.5	Soxibqiron MFY	455	656.3	Jannatbuloq MFYdagi 240 ta xonadon Soxibqiron MFYga, 335 xonadon Jannatmakon MFYga birlashtiriladi. Soxibqiron MFY hududi 901,5 ga. xonadon soni 695 ta bo‘ladi. Jannatmakon MFY hududi 1296,3 ga. xonadon soni 1003 ta bo‘ladi.
					Jannatmakon MFY	668	956.1	
24	Paxtaobod tumani	Soy bo‘yi MFY	386	270.1	Andijon MFY	559	360.9	Soy bo‘yi MFY Andijon MFYga birlashtiriladi. Andijon MFY hududi 631,1 ga. xonadon soni 945 ta bo‘ladi.
25	Paxtaobod tumani	Bobur nomli MFY	375	63.2	Navro‘z MFY	584	122.7	Bobur nomli MFY Navro‘z MFYga birlashtiriladi. Navro‘z MFY hududi 185,9 ga. xonadon soni 959 ta bo‘ladi.
26	Paxtaobod tumani	Do‘stlik MFY	409	142.2	Qo‘rg‘oncha MFY	502	120.8	Do‘stlik MFY Qo‘rg‘oncha MFYga birlashtiriladi. Qo‘rg‘oncha MFY hududi 263,0 ga. xonadon soni 911 ta bo‘ladi.
27	Paxtaobod tumani	Yangichek	460	512.8	Ovushka	509	253.5	Yangichek MFY Ovushka MFYga birlashtiriladi. Ovushka MFY hududi 766,3 ga. xonadon soni 969 ta bo‘ladi.

28	Paxtaobod tumani	Gulzor	356	720.2	Olmazor	420	1,682.5	Gulzor MFY Olmazor MFYga birlashtiriladi. Olmazor MFY hududi 2402,7 ga. xonadon soni 776 ta bo‘ladi.
29	Paxtaobod tumani	Guldiyor	297	264.1	Chorbog‘	378	108.3	Guldiyor MFY Chorbog‘ MFYga birlashtiriladi. Chorbog‘ MFY hududi 372,4 ga. xonadon soni 675 ta bo‘ladi.
30	Ulug‘nor tumani	Farovon MFY	452	538.7	Terakzor MFY	461	1796.0	Farovon MFY Terakzor MFYga birlashtiriladi. Terakzor MFY hududi 2334,7 ga. xonadon soni 913 ta bo‘ladi.